Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 11-noyabr chorshanba №45(9630)

TA'LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGIGA TAKLIFLAR

2–3-betlar




MUVOZANAT QAYERDA?

7-bet

Dolzarb mavzu

MUVOZANAT QAYERDA?

"Ustoz – otangdan ulug'". Bu hikmatni bolaligimizdan eshitib ulg'ayganmiz. Unda xalqimizning ustozga munosabati, ilmga ehtiromi, tarbiyaga bo'lgan qarashi mujassam. Ammo zamon o'zgaryapti. Maktab ham o'zgaryapti. Bolalar, ota-onalar, o'qituvchilarning dunyoqarashi, huquq va mas'uliyat haqidagi tushunchalari ham kechagidek emas.



Samariddin QORAYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

Bugun bir haqiqatni ochiq tan olishimiz kerak: ustozni faqat "hurmat qilish shart" degan chaqiriq bilan himoya qilib bo'lmaydi. O'quvchini ham faqat "uning huquqlari bor" degan qarash bilan tarbiyalab bo'lmaydi. Chunki sinf xonasida ikki inson uchrashadi: biri – bilim va tajriba berayotgan ustoz, ikkinchisi – shakllanayotgan shaxs. Ular o'rtasidagi munosabat buzilsa, birinchi navbatda ta'lim zarar ko'radi.

Dunyoning turli mamlakatlarida kuzatilayotgan holatlar ham shundan darak bermoqda. TALIS – 2024 xalqaro tadqiqotida o'qituvchilarning salmoqli qismi sinfda tartibni saqlashni katta stress manbayi sifatida ko'rsatgan. O'quvchilarning haqorati yoki qo'rqitishiga duch kelgan pedagoglarda esa yaqin yillarda kasbni tark etish istagi ancha yuqori ekani qayd etilgan. Bu birgina o'qituvchining asabi yoki bir o'quvchining odobsizligi masalasi emas. Bu – maktab muhiti masalasi. Ta'lim sifati masalasi. Jamiyat kelajagi masalasi.

Tarixga nazar tashlasak, maktabda intizomni ta'minlash usullari har doim ham bugungi mezonlarga mos bo'lmaganini ko'ramiz. Asrlar davomida ko'plab jamiyatlarda o'qituvchining obro'si qattiqqo'llik bilan o'lchangan. Jismoniy jazo tarbiyaning oddiy vositasi hisoblangan davrlar ham bo'lgan. Sharqda esa ustoz-shogird munosabati yuksak ma'naviy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Shogird ustozini ilm beruvchi insongina emas, ma'naviy rahnamo sifatida ko'rgan. Ammo vaqt bir haqiqatni isbotladi: qo'rquv itoatni tug'dirishi mumkin, lekin hurmatni emas. Haqiqiy ustoz obro'si bolaning uni ko'rganda cho'chishida emas, uning so'ziga ishonishida namoyon bo'ladi. Haqiqiy tarbiya ham jazodan qochish emas, o'z xatti-harakatining oqibatini anglashdan boshlanadi.

1989-yili BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi qabul qilinishi bilan bolaga mustaqil shaxs sifatida munosabatda bo'lish xalqaro prinsipga aylandi. Bu insoniyatning katta yutug'i edi. Ammo tajriba yana bir savolni kun tartibiga olib chiqdi: bolaning huquqini himoya qilar ekanmiz, uni tarbiyalayotgan pedagogning qonuniy huquqi, qadr-qimmati va kasbiy obro'sini qanday asraymiz? Masalaning eng nozik nuqtasi ham shu yerda. Bir tomonni himoya qilib, ikkinchi tomonni himoyasiz qoldirish mumkin emas.

Finlandiya tajribasida e'tiborga molik bir jihat bor: murakkab vaziyat yuzaga kelganda barcha mas'uliyat faqat o'qituvchining zimmasiga tashlab qo'yilmaydi. Direktor, psixolog, ijtimoiy xodim, tibbiyot xodimi – zaruratga qarab barchasi bola bilan ishlash jarayoniga qo'shiladi. Oddiy qilib aytganda, o'qituvchi muammo bilan yakka o'zi kurashmaydi. Bu juda muhim tamoyil. Biz ba'zan pedagogdan hamma narsani talab qilamiz: dars bersin, tarbiyalasin, hujjat to'ldirsin, ota-ona bilan ishlasin, nizoni hal qilsin, psixolog bo'lsin, bolaning kayfiyatini ham nazorat qilsin. Ammo o'qituvchi ham inson. U ham charchaydi. U ham tushunishga va qo'llab-quvvatlashga muhtoj. Charchagan, ruhan zo'riqqan, doimiy bosim ostidagi pedagogdan esa har bir vaziyatda sabr, mehr va yuksak pedagogik mahorat kutish qiyin. Shuning uchun zamonaviy maktabning asosiy tamoyillaridan biri shunday bo'lishi kerak: muammoli bolani o'qituvchiga tashlab qo'ymaslik, muammoli vaziyatda esa o'qituvchini yolg'iz qoldirmaslik.

Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlar ta'lim natijalari bo'yicha dunyoda yetakchilar qatorida turadi. Ammo yuqori ko'rsatkichlar ortida ham jiddiy muammolar bor. 2024-yili Yaponiya maktablarida 769 mingdan ortiq bulling holati qayd etilgan. Maktabga bormay qo'ygan o'quvchilar soni ham yuqori ko'rsatkichga yetgan. Bu raqamlarni faqat salbiy ma'noda qabul qilish to'g'ri emas: holatlarni aniqlash va yashirmasdan hisobga olish tizimi kuchayishi ham statistika oshishiga ta'sir qiladi.

Bu yerda muhim xulosa bor: muammoni yashirish, uni yo'qotmaydi. Aksincha, ko'ringan muammogina hal etiladi. Janubiy Koreya esa boshqa og'riqli saboqni boshdan kechirdi. Ota-onalarning doimiy shikoyatlari va bosimi, o'qituvchining har bir tarbiyaviy harakatidan xavfsirashi pedagoglar orasida jiddiy noroziliklarga sabab bo'ldi. Natijada 2023-yili mamlakat parlamenti o'qituvchi huquqlarini kuchaytirishga qaratilgan qonunlar paketini qabul qildi.

Saboq oddiy: ota-ona farzandining himoyachisi bo'lishi tabiiy. Lekin bu o'qituvchini raqibga aylantirish degani emas. Chunki bolaning kelajagi uchun ota-ona ham, o'qituvchi ham bir tomonda turishi kerak.

O'zbek xalqi uchun ustozga hurmat kecha paydo bo'lgan qadriyat emas. Biz ilm bergan insonni ulug'lashni milliy tarbiyamizning bir qismi deb bilamiz. Biroq bugun an'anaviy hurmatning o'zi yetarli emas. U qonuniy kafolat, munosib mehnat sharoiti, kasbiy mahorat va sog'lom maktab muhiti bilan mustahkamlanishi zarur.

2024-yil 1-fevralda O'zbekistonda "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonun imzolandi. Unda pedagogning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida ekani mustahkamlandi. Pedagogni kasbiga aloqasi bo'lmagan ishlarga jalb etish va ortiqcha hisobotlar bilan band qilish kabi holatlarga cheklovlar belgilandi. Bu – katta qadam. Ammo har qanday qonunning haqiqiy kuchi uning qog'ozda yozilganida emas, hayotda ishlashida namoyon bo'ladi. O'qituvchi haqoratga uchrasa, uni kim himoya qiladi? Ota-ona asossiz bosim o'tkazsa, maktab rahbari qaysi tartibda chora ko'radi? O'quvchi o'zini adolatsiz munosabat qurboni deb his qilsa, kim uni tinglaydi? O'qituvchi xato qilgan bo'lsa, xolis bahoni kim beradi? Mana shu savollarga har bir maktabda aniq va tushunarli javob bo'lishi kerak.

Pedagog maqomini oshirish deganda o'qituvchini har qanday holatda haq deb e'lon qilish tushunilmasligi kerak. O'qituvchi ham xato qilishi mumkin. Bolaga baqirishi, uning qadr-qimmatiga tegishi, pedagogik me'yordan chiqishi mumkin. Bunday vaziyatda bolaning huquqi himoya qilinishi shart.

Xuddi shuningdek, o'quvchi yoki uning ota-onasi tomonidan pedagogning sha'nini toptash, asossiz ayblash, haqorat qilish yoki unga bosim o'tkazish ham "bolaning huquqi" degan tushuncha bilan oqlanmasligi kerak. Adolat – bir tomonni tanlash emas, balki har ikki tomonni eshitishdir.

Pedagogni himoya qilish haqida gapirar ekanmiz, yana bir haqiqatni chetlab o'ta olmaymiz. O'qituvchining obro'si faqat qonun bilan belgilanmaydi. Uning bilimi, muomala madaniyati, adolati, dars o'tish mahorati, bolani tushuna olishi va shaxsiy namunasi ham obro'ni shakllantiradi. O'quvchi har qanday soxtalikni tez sezadi. Ustoz uni hurmat qilsa – bola ham asta-sekin hurmat qilishni o'rganadi. Ustoz adolatli bo'lsa – uning talabi og'ir bo'lsa ham qabul qilinadi. Ustoz bolani eshitsa – bola ham ustozni eshitishga tayyor bo'ladi. Demak, bugun bizga shunchaki qattiqqo'l o'qituvchi emas, kuchli shaxs bo'lgan o'qituvchi kerak. Bunday ustoz obro' talab qilmaydi. Obro' qozonadi.

Xo'sh, nizo qayerdan boshlanadi? Ustoz va o'quvchi o'rtasidagi har bir muammoni "tarbiyasiz bola" yoki "yomon o'qituvchi" degan sodda xulosa bilan tushuntirish oson. Ammo masala bundan murakkab. Nizolar ko'pincha o'zaro ishonchning yo'qolishi, o'qituvchining ortiqcha yuklamasi, ota-onaning noto'g'ri aralashuvi, psixologik xizmatning zaifligi, sinf boshqaruvi ko'nikmalarining yetishmasligi yoki ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlar tufayli kelib chiqadi.

Bugun yana bir yangi muammo bor – telefon kamerasi. Sinfdagi tortishuvning o'n soniyalik parchasi ijtimoiy tarmoqqa chiqishi mumkin. Lekin undan oldin nima bo'lgani, keyin nima bo'lgani ko'rinmaydi. Bir necha soat ichida butun jamiyat "hukm" chiqarib qo'yadi. Shunday paytda o'qituvchi ham, o'quvchi ham himoyasiz qolishi mumkin. Shu sababli raqamli davrda maktab nizolarini hal qilish uchun oddiy "kim aybdor?" savoli yetarli emas. Avvalo, nima sodir bo'lganini to'liq tushunish kerak. Jazo emas, tizim ishlashi kerak.

Dunyo tajribasi muhim bir haqiqatni ko'rsatmoqda: muammoni faqat jazoni kuchaytirish bilan hal qilib bo'lmaydi. Finlandiyaning KIVA dasturi bullingga qarshi kurashda butun maktab jamoasini ishga soladi. O'qituvchi, o'quvchi va boshqa ishtirokchilar uchun aniq harakat tartibi belgilanadi. Ilk yirik tajribalarda dastur o'quvchilarning jabrlanish holatlarini sezilarli kamaytirgan.

Janubiy Koreya pedagoglarni qonun bilan himoya qilishga urindi. Singapurda ota-ona va maktab o'rtasidagi munosabat qoidalari aniq belgilab qo'yilgan. Yaponiya esa muammolarni erta aniqlash va majburiy xabar berish tizimiga urg'u bermoqda. Turli mamlakatlar – turli usullar. Ammo ularni birlashtirib turgan umumiy g'oya bor: maktabdagi sog'lom muhit birgina direktor, birgina psixolog yoki birgina o'qituvchining ishi emas. Bu – butun tizimning vazifasi.

O'zbekiston uchun eng muhim vazifalardan biri – o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarini muntazam o'rganib borish. Biz imtihon natijalarini hisoblaymiz. Davomatni aniqlaymiz. Baholarni hisoblaymiz. Lekin sinfda o'qituvchi o'zini qanchalik xavfsiz his qilayotganini-chi? O'quvchi ustozi bilan erkin gaplasha oladimi? Ota-ona maktabga hamkor sifatida kelyaptimi yoki da'vogar sifatida? Yosh pedagogga ta'lim-tarbiyada oqsayotgan sinf berilganda uning yonida kim turibdi? Bu savollarga ham javob kerak. Chunki o'lchanmagan muammoni boshqarish qiyin.

Har bir maktabda o'qituvchi, o'quvchi va ota-ona uchun tushunarli bo'lgan umumiy hurmat qoidalari bo'lishi maqsadga muvofiq. Nizo yuzaga kelsa, masala qaysi bosqichda kim tomonidan ko'rib chiqilishi oldindan aniq bo'lishi kerak.

Yosh o'qituvchiga tajribali pedagogni mentor sifatida biriktirish, sinfni boshqarish, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, stressga qarshi ishlash va bola bilan muloqot qilish ko'nikmalarini pedagog tayyorlash tizimining muhim qismiga aylantirish zarur. Psixolog esa maktabda faqat hisobot uchun mavjud lavozim bo'lib qolmasligi kerak. U bola uchun ham, o'qituvchi uchun ham haqiqiy yordam manbayi bo'lishi lozim.

Maktabdagi ko'plab muammolarning yechimi ota-onaning pozitsiyasiga ham bog'liq. Ota-ona – hakam emas, hamkor bo'lishi kerak. Ular bolaning gapini eshitishi lozim. To'g'ri. Lekin uning har bir gapini mutlaq haqiqat deb qabul qilish ham to'g'ri emas. O'qituvchini ham eshitish zarur. Ammo uning har qanday harakatini kasbiy mavqeyi tufayli oqlash ham noto'g'ri. Ota-ona uchun eng to'g'ri pozitsiya: "Farzandimni himoya qilaman, ammo haqiqatni ham bilishni istayman", degan yondashuvdir. O'qituvchi uchun esa: "Men pedagogman, demak, men har doim haqman", degan emas, balki "Men pedagogman, shuning uchun mas'uliyatim kattaroq", degan qarash muhim. O'quvchi ham huquq bilan birga mas'uliyat mavjudligini anglab ulg'ayishi kerak. Shunda maktabda "uch tomon" emas, bitta jamoa paydo bo'ladi: o'quvchi – ota-ona – ustoz.

Tarix bizga ikki katta xatoni ko'rsatdi. Birinchi xato – o'qituvchining obro'sini qo'rquv bilan saqlashga urinish. Ikkinchi xato – o'qituvchini himoyasiz qoldirish. Har ikki holatda ham oxir-oqibat bola zarar ko'radi. Chunki qo'rquv hukmron sinfda ijodkorlik bo'lmaydi. Himoyasiz o'qituvchi ishlaydigan sinfda esa barqarorlik bo'lmaydi. Bizga uchinchi yo'l kerak. Bu – ishonch yo'li.

Ustozni qonun himoya qilsin. Shogirdni maktab himoya qilsin. Ota-ona ustozni raqib emas, farzandi tarbiyasidagi hamkor deb bilsin. O'qituvchi esa bolaga "mendan past" deb emas, shakllanayotgan shaxs deb qarasin. Shunda "Ustoz – otangdan ulug'" degan qadimiy hikmat ham yangi mazmun kasb etadi.

Ustozning ulug'ligi faqat uning lavozimida emas – bolaga bergan bilimi, mehri, adolati va namunasida namoyon bo'ladi. Shogirdning hurmati ham qo'rquvdan emas – ishonchdan tug'iladi. Ustoz va shogird o'rtasidagi eng mustahkam ko'prik ham ishonchdan quriladi. Bu ko'prikni asrash esa faqat maktabning emas, barchamizning vazifamiz.